KONFERENSIYA TO‘PLAMI

# MA’RIFAT FIDOYISI

**I QISM**

TOSHKENT
**“IZLANUVCHI”**
2026

**“IZLANUVCHI” ILMIY - MATBUOT MARKAZI. “MA’RIFAT FIDOYISI” /ILMIY-IJODIY TO'PLAM - TOSHKENT/ 2026-y.**

Ushbu to‘plam ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida olib borilayotgan eng yangi izlanishlar, ilg‘or yutuqlar hamda dolzarb g‘oyalarga bag‘ishlangan. Asarlarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalda ro‘yobga chiqarayotgan bunyodkorlik ishlari, zamonaviy dunyoda raqobatbardoshlikni ta’minlayotgan yangiliklar va tadqiqotlar keng yoritilgan.

Fan va texnika rivojiga oid turli tahliliy maqolalar, amaliy izlanishlar natijalari, ilg‘or tajribalar va kelajak istiqbollari o‘z ifodasini topgan. Unda sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, biotexnologiya, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar kabi mavzular qamrab olingan bo‘lib, zamonaviy taraqqiyot jarayonlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Mazkur nashr zamonaviy ilm-fan rivojiga befarq bo‘lmagan olimlar, tadqiqotchilar, ixtirochilar va yosh mutaxassislar uchun foydali manba hisoblanadi.

**ISBN:** 978-1-291-50905-2

© **«Ma’rifat fidoyisi», 2026**
© **«IZLANUVCHI», 2026**

# SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti, inson kapitalini rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash hamda mamlakatning ilmiy-intellektual salohiyatini yuksaltirishda ta’lim, ilm-fan va ma’rifatning o‘rni tobora ortib bormoqda. Zamon talablarining tezkor o‘zgarishi, raqamli texnologiyalarning hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelishi, ilmiy tafakkur va innovatsion yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi ta’lim va ma’rifat sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklamoqda.

Ma’rifat — inson va jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevoridir. Ilmga intilish, bilim olish, tafakkur qilish, ezgulik va bunyodkorlik g‘oyalarini targ‘ib etish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish har qanday taraqqiyparvar jamiyatning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu ma’noda, xalqimizning ko‘p asrlik ilmiy-ma’rifiy an’analari, buyuk mutafakkirlarimizning boy ilmiy va ma’naviy merosi bugungi avlod uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yurtimiz tarixida ilm-fan va ma’rifat rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan allomalar, ziyolilar, ustoz va murabbiylar ko‘p bo‘lgan. Ularning hayoti, ilmiy faoliyati va ma’rifat yo‘lidagi fidoyiligi bugungi avlod uchun ibrat maktabidir. Ilmni ulug‘lash, ustozni e’zozlash, yosh avlodga sifatli ta’lim va tarbiya berish kabi ezgu qadriyatlar xalqimiz ma’naviy hayotining ajralmas qismidir.

Ana shunday ezgu maqsad va yuksak qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan «Ma’rifat fidoyisi» ilmiy-amaliy konferensiyasi ilm-fan, ta’lim, ma’naviyat va ma’rifat sohalarida izlanish olib borayotgan olimlar, pedagoglar, tadqiqotchilar, mutaxassislar, yosh olimlar, magistrantlar hamda talabalarni bir ilmiy-ma’rifiy maydonda jamlashga xizmat qiladi.

Mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi — ilmiy tadqiqotlarning dolzarb natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish, ilmiy va amaliy tajriba almashish, zamonaviy ta’lim jarayonining muhim masalalarini muhokama qilish, mavjud muammolarning samarali yechimlarini izlash hamda ilm-fan va ma’rifat rivojiga xizmat qiluvchi yangi ilmiy g‘oya va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Konferensiya doirasida ta’lim va tarbiya masalalari, pedagogik jarayonni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish kabi ko‘plab dolzarb masalalar muhokama etilishi mazkur ilmiy anjumanning ahamiyatini yanada oshiradi.

Taqdim etilayotgan ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami ana shu ilmiy izlanish va fikr almashuvlarining muayyan natijasi sifatida shakllantirildi. To‘plamdan turli ilmiy yo‘nalishlarda olib borilgan

tadqiqotlarning natijalari, ilmiy maqolalar, konferensiya tezislari, amaliy tavsiyalar hamda mualliflarning dolzarb masalalarga oid ilmiy qarashlari o‘rin olgan.

Mazkur materiallarda mualliflarning muayyan ilmiy muammolarga munosabati, mavjud tajribalarni tahlil qilishga bo‘lgan yondashuvi, yangi ilmiy xulosalari va amaliy takliflari o‘z aksini topgan. Shu jihatdan, to‘plamdagi har bir maqola va tezis muayyan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, soha rivojiga doir fikr va mulohazalarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, yosh tadqiqotchilar, izlanuvchilar va pedagoglarning ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi, ularning o‘z ilmiy qarashlarini erkin ifoda etishi va tadqiqot natijalarini ilmiy jamoatchilikka taqdim etishi bugungi kun uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm-fan taraqqiyoti yangi avlod tadqiqotchilarining izlanishlari, tashabbuslari va ilmiy jasorati bilan chambarchas bog‘liq.

Ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy mahoratini yuksaltirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Konferensiya materiallarida ushbu masalalarga oid ilmiy fikrlarning keng yoritilgani to‘plamning amaliy qiymatini yanada oshiradi.

Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy va madaniy merosimizni asrab-avaylash, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mas’uliyat, mehnatsevarlik va ezgulik kabi fazilatlarni shakllantirishda ma’rifiy faoliyatning ahamiyati katta. Bu borada ta’lim muassasalari, ilmiy jamoatchilik, pedagoglar va keng jamoatchilikning hamkorligi muhim natijalar beradi.

«Ma’rifat fidoyisi» nomining o‘zi ham katta ma’no va mas’uliyatni anglatadi. Ma’rifat yo‘lida fidoyilik — bu faqat bilim berish yoki ilmiy tadqiqot olib borish bilangina cheklanmaydi. U inson qalbiga ezgulik urug‘ini qadash, yosh avlodga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ilmga muhabbat uyg‘otish, jamiyat ravnaqi uchun o‘z bilim va tajribasini safarbar etish, yangilikka intilish va doimo izlanishda bo‘lishni anglatadi.

Bugungi kunda har bir ustoz, olim, tadqiqotchi va ziyoli zimmasidagi eng muhim vazifalardan biri — bilim va ma’rifatni jamiyatning barcha qatlamlariga yetkazish, ilmiy tafakkurni rivojlantirish va yosh avlodni kelajak sinovlariga tayyorlashdir. Bu yo‘lda ilmiy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va ilmiy nashrlar muhim ilmiy-muloqot platformasi vazifasini bajaradi.

Ushbu to‘plam ham ana shunday ilmiy muloqotning samarasi bo‘lib, unda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari mujassam. Mazkur materiallar nafaqat muayyan ilmiy masalalarni o‘rganishda, balki yangi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish

va amaliy faoliyatni takomillashtirishda ham foydali manba bo‘lishi mumkin.

Ishonamizki, konferensiya materiallari ilmiy jamoatchilik, oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagoglari, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, soha mutaxassislari hamda ma’rifat masalalariga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun munosib ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqola va tezislar yangi ilmiy izlanishlarga turtki berib, mualliflar o‘rtasida samarali ilmiy hamkorlikni kuchaytirishiga, tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirishiga va ta’lim hamda ma’rifat sohasidagi dolzarb masalalarning yechimiga munosib hissa qo‘shishiga umid qilamiz.

«Ma’rifat fidoyisi» ilmiy-amaliy konferensiyasi barcha ishtirokchilar uchun yangi ilmiy g‘oyalar, samarali hamkorlik, mazmunli munozara va foydali tajribalar maydoniga aylanishi, unda ilgari surilgan ilmiy fikr va tashabbuslar kelgusida yangi tadqiqotlar va amaliy loyihalarga asos bo‘lishi shubhasiz.

Ilm yo‘lidagi har bir izlanish, ma’rifat yo‘lidagi har bir tashabbus, yosh avlod ta’limi va tarbiyasiga qo‘shilgan har bir hissa jamiyat kelajagiga qo‘shilgan munosib hissadir. Zero, ma’rifatli avlod — taraqqiyotning, ilmli jamiyat esa farovon kelajakning mustahkam poydevoridir.

Shu ezgu maqsad yo‘lida faoliyat olib borayotgan barcha ustoz va murabbiylar, olim va tadqiqotchilar, yosh izlanuvchilar hamda konferensiya ishtirokchilariga ilmiy faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar, yangi ilmiy kashfiyotlar va ijodiy parvozlar tilaymiz.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami ilm-fan va ma’rifat rivojiga, ilmiy fikr almashuvining kengayishiga hamda kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilsin!

***Akramov Abdumalik Abdumatalovich professor***

***Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori***

# YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA EKOLOGIK MA’RIFATNING IQTISODIY AHAMIYATI

**Ergasheva Shaxzoda Bahrom qizi**
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

**Annotatsiya**: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ekologik ma’rifatning iqtisodiy o‘rni haqida yoritilgan. Ekologik muommolarnig ko‘payishi tabiiy resurs(neft, gaz, ko‘mir)lardan oqilona foydalanish zarurati va iqlim o‘zgarishi paytida aholining ekologik bilim va madaniyatini rivojlantirish iqtisodiy yuksalishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Shuningdek, ushbu maqolada ekologik ma’rifatning resurslarni imkon qadar tejash, chiqindilarni keskin kamaytirish, yashil iste’molni rivojlantirish, ekologik tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash hamda inson kapitali sifatini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ekologik ma’rifat tushunchasini rivojlantirish orqali yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng talqin qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar**: yashil iqtisodiyot, ekologik ma’rifat, ekologik madaniyat, inson kapitali, yashil iste’mol, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik tadbirkorlik, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** This article examines the economic role of environmental education in the process of transitioning to a green economy. The increasing number of environmental problems, the need for the rational use of natural resources such as oil, gas, and coal, and the development of environmental knowledge and culture among the population in the context of climate change are becoming some of the key factors of economic growth. The article also analyzes the role of environmental education in conserving resources as much as possible, significantly reducing waste, promoting green consumption, supporting environmental entrepreneurship, and improving the quality of human capital. In particular, proposals have been developed for the Republic of Uzbekistan to promote a broader understanding of the principles of the green economy through the development of environmental education.

**Keywords:** green economy, environmental education, environmental culture, human capital, green consumption, rational use of resources, environmental entrepreneurship, sustainable development.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается экономическая роль экологического просвещения в процессе перехода к зелёной экономике. Рост экологических проблем, необходимость рационального использования природных ресурсов, таких как нефть, газ и уголь, а также развитие экологических знаний и культуры населения в условиях изменения климата становятся одними из основных факторов экономического роста. В статье также анализируется роль экологического

просвещения в максимально эффективном сбережении ресурсов, значительном сокращении отходов, развитии зелёного потребления, поддержке экологического предпринимательства и повышении качества человеческого капитала. В частности, разработаны предложения по более широкому распространению принципов зелёной экономики в Республике Узбекистан посредством развития экологического просвещения.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, экологическое просвещение, экологическая культура, человеческий капитал, зелёное потребление, рациональное использование ресурсов, экологическое предпринимательство, устойчивое развитие.

**Kirish:** Hozirgi kunda iqtisodiyot faqat ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi bilan emas, balki iqtisodiy o‘sishning ekologik barqarorligi bilan ham baholanmoqda. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va chiqindilar hajmining ortib borishi an’anaviy iqtisodiy rivojlanish modelini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyotga o‘tish zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va aholi farovonligini oshirishni bir vaqtning o‘zida nazarda tutadi. Ammo yashil iqtisodiyotga o‘tish faqat yangi texnologiyalar yoki davlat dasturlari orqali amalga oshmaydi. Bu jarayonda inson omili, xususan, aholining ekologik bilimi va mas’uliyati alohida ahamiyatga kasb etadi. Chunki energiyani tejash, suvdan oqilona foydalanish, chiqindilarni saralash, ekologik toza mahsulotlarni tanlash kabi kundalik qarorlarning barchasi iqtisodiy natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik ma’rifat - insonlarning atrof-muhit, tabiiy resurslar, ekologik muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlari haqidagi bilimlarini shakllantirish hamda ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish jarayoni. Ekologik ma’rifatning iqtisodiy ahamiyati shundaki, ekologik bilimga ega bo‘lgan shaxs o‘zining kundalik iste’mol va mehnat faoliyatida resurslardan samaraliroq foydalanadi. Masalan, elektr energiyasini tejash nafaqat ekologik yuklamani kamaytiradi, balki oilaning kommunal xarajatlarini ham qisqartiradi. Suvni tejash esa suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Demak, ekologik mas’uliyat iqtisodiy manfaat bilan qarama-qarshi emas. Aksincha, ko‘plab holatlarda ekologik jihatdan mas’uliyatli xatti-harakatlar iqtisodiy tejamkorlikni ta’minlaydi.

Aholining ekologik bilimi va salohiyati iste’mol bozoridagi talabga ham ta’sir ko‘rsatadi. Iste’molchilar ekologik oqibatlarni hisobga olgan holda mahsulot tanlay boshlagan sari ishlab chiqaruvchilar ham o‘z faoliyatini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Masalan, energiya tejamkor maishiy texnika, qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan mahsulotlar, uzoq muddat foydalanish mumkin bo‘lgan buyumlar va ekologik qadoqlashga bo‘lgan talabning ortishi korxonalarni yashil ishlab chiqarish tamoyillarini joriy etishga undaydi. Shu

boisdan, ekologik ma’rifatni rivojlantirish orqali iste’molchi nafaqat xaridor, balki yashil iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, yashil iqtisodiyot uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kabi vazifalar belgilangan. Strategiyada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 2030-yilgacha 25 foizdan yuqoriga olib chiqish maqsad qilib qo‘yilgan.

Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida ekologik madaniyatni oshirish faqat nazariy targ‘ibot bilan cheklanib qolmay, turli amaliy loyihalar orqali ham amalga oshirilmoqda. Shulardan biri - “Yashil makon” umummilliy loyihasi. Loyiha doirasida daraxt ekish, yashil hududlarni kengaytirish va aholining ko‘kalamzorlashtirishdagi ishtirokini oshirishga muhim e’tibor qaratilmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2021–2025-yillar davomida mamlakat bo‘yicha 872 mln tup daraxt va buta ko‘chati ekilgan. 2025-yil bahorgi mavsumida 125 mln tup ko‘chat ekish rejalashtirilgan bo‘lsa, amalda hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos ravishda 136,9 mln tup ko‘chat ekilgan. Ushbu loyihaning iqtisodiy ahamiyati faqat daraxtlar sonini ko‘paytirishdan maqsad: yashil hududlarning ko‘payishi shahar mikroiqlimini yaxshilash, issiqlik ta’sirini kamaytirish, aholi yashash sharoitini yaxshilash va uzoq muddatda iqlim xavflariga chidamlilikni oshirishdir. Shu sababli ko‘chat ekish jarayonini ekologik ma’rifat bilan bog‘lash muhim: fuqaro daraxt ekishni shunchaki tadbir emas, balki kelajakdagi ekologik va iqtisodiy farovonlikka qo‘shilgan hissa sifatida tushunishi kerak.

Ekologik ma’rifatning iqtisodiy samaradorligini chiqindilarni boshqarish tizimi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimini raqamlashtirishga ham muhim e’tibor qaratilmoqda. “Toza makon” yagona elektron billing tizimi bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil iyul holatiga ko‘ra, ushbu tizimda 7,3 mln abonent shakllantirilgani qayd etilgan. 2025-yil may oyidagi rasmiy ma’lumotlarda esa respublikada 8 277 ta mahallaning 88 foizida sanitariya tozalash xizmatlari yo‘lga qo‘yilgani, 7,224 mln abonent va 23,542 mln nafar, ya’ni aholining 63 foizi qamrab olingani ko‘rsatilgan. Bu raqamlar chiqindi boshqaruvi oddiy sanitariya masalasi emasligini ko‘rsatadi. Chiqindi tarkibidagi plastik, qog‘oz, shisha, metall va boshqa materiallarning qayta ishlanishi ularni iqtisodiy resursga aylantiradi. Buning uchun esa chiqindini manbada to‘g‘ri saralash, aholining qayta ishlash tizimiga ishonchi va ekologik madaniyati zarur.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ekologik loyihalarni yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

**1. “Ekologik ma’rifat → iqtisodiy foyda” modelini joriy etish**

Ekologik targ‘ibotda faqat tabiatni asrashga chaqirish bilan cheklanmasdan, ekologik xatti-harakatning iqtisodiy foydasi ham ko‘rsatilishi kerak.

Masalan:

“Elektrni tejash - tabiatni asrash + oilaviy xarajatni kamaytirish.”

“Chiqindini saralash - atrof-muhitni asrash + ikkilamchi xomashyoni iqtisodiy resursga aylantirish.”

“Ko‘p marta ishlatiladigan mahsulot - chiqindini kamaytirish + uzoq muddatli xarajatni qisqartirish.”

Bunday yondashuv ekologik targ‘ibotni aholining kundalik iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘laydi.

**2. Mahallalarda “Ekologik iqtisodiyot” targ‘ibot tizimini yaratish**

Har bir mahallada ekologik targ‘ibotning alohida yo‘nalishini joriy etish mumkin. Bunda aholiga chiqindilarni saralash, suv va energiyani tejash, yashil hududlarni saqlash bilan bir qatorda, ushbu faoliyatning iqtisodiy natijalari ham tushuntiriladi.

Mahallalar o‘rtasida **“Eng ekologik va tejamkor mahalla”** kabi tanlovlarni tashkil etish orqali ekologik madaniyatni raqobat va rag‘batlantirish mexanizmi bilan birlashtirish mumkin.

**3. Maktab va oliy ta’limda ekologik iqtisodiy laboratoriyalar tashkil etish**

Ekologik ma’rifatni faqat dars shaklida emas, amaliy tajriba orqali o‘rgatish maqsadga muvofiq. Masalan, talabalar bir oy davomida universitetning elektr energiyasi yoki suv sarfini kuzatib, uni kamaytirish bo‘yicha iqtisodiy loyiha ishlab chiqishi mumkin. Eng samarali loyihalarga universitet tomonidan rag‘bat berilishi mumkin. Bu usul yoshlarni bir vaqtning o‘zida **ekologik fikrlash, iqtisodiy tahlil va tadbirkorlik** ko‘nikmalariga o‘rgatadi.

**4. “Ekofaol fuqaro” raqamli platformasini yaratish**

Fuqarolarning ekologik faolligini raqamli tarzda baholovchi platforma yaratish mumkin. Unda daraxt ekish, chiqindi saralash, ekologik aksiyalarda qatnashish, jamoat transportidan foydalanish kabi faoliyatlar uchun ball beriladi. To‘plangan ballarni ekologik mahsulotlar, kitoblar, transport yoki boshqa xizmatlar uchun chegirmaga almashtirish imkoniyati yaratilsa, ekologik xulq-atvorni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi paydo bo‘ladi.

**Xulosa:** Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida texnologiya, investitsiya va davlat siyosati qanchalik muhim bo‘lmasin, ularning yakuniy samarasi inson omiliga bog‘liq. Ekologik ma’rifat esa aynan shu inson omilini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. O‘zbekistonda “Yashil makon”, “Chiqindidan xoli hudud”, “Ekologik madaniyat”, “Toza havo” kabi tashabbuslarning amalga oshirilayotgani ekologik masalalar davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi. Biroq eying bosqichda ekologik targ‘ibotni shunchaki tabiatni asrashga chaqiriq darajasida qoldirmasdan, uni iqtisodiy manfaat, tejamkorlik, yangi ish o‘rinlari, tadbirkorlik va inson kapitali bilan bog‘lash muhim. Shu ma’noda ekologik ma’rifat – xarajat talab qiladigan oddiy targ‘ibot emas, balki uzoq muddatda resurslardan samarali foydalanish, yashil bozorni shakllantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiluvchi inson kapitaliga

investitsiya sifatida qaralishi kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-4539502
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. **“**Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha ma’lumotlar**.** 2025. https://gov.uz/oz/eco/activity_page/yashil-makon-umummilliy-loyihasi \
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. “Chiqindidan xoli hudud”, “Ekologik madaniyat”, “Biomeros” va “Toza havo” loyihalari bo‘yicha ma’lumotlar**.** 2026. https://gov.uz/oz/eco/news/view/156792
4. UNDP Uzbekistan. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan and UNDP Uzbekistan sign Statement of Intent to advance green economy under PAGE. 2025. https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases
5. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi. “2030-yilgacha Respublikada yashillik darajasini 30 foizga yetkazish maqsad qilinmoqda”. 21.05.2025.https://gov.uz/oz/urmon/news/view/55811

**MUNDARIJA**

SO‘ZBOSHI ..... 3

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGNING ROLI ..... 6

OIV INFEKSIYASINING ONADAN BOLAGA O‘TISHI (VERTIKAL TRANSMISSIYA) PROFILAKTIKASI SAMARADORLIGI ..... 16

ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ АНТРОПОНИМОВ В ОФИЦИАЛЬНОЙ И РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ ..... 21

ULUG‘BEK HAMDAM SHE’RIYATIDA MILLIY-MADANIY KODLARNING POETIK VOQELANISHI .... 25

ELEKTRON DALILLAR: TUSHUNCHASI, TURLARI VA SUD JARAYONIDA FOYDALANISH TARTIBI ..... 32

OSHROZON YARASI: RIVOJLANISH MEXANIZMLARI, DIAGNOSTIKA VA DAVOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI ..... 41

O‘SIMLIKLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O‘RNI 45

ZAMONAVIY JAMIYATDA KO‘PXOTINLIKKA BO‘LGAN MUNOSABAT ..... 49

ARTIFICIAL INTELLIGENCE, VIDEO GAMES, AND VIDEO-BASED RESOURCES IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE: A REVIEW OF CURRENT EVIDENCE AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS ..... 53

ALISHER NAVOIY : HAYOTI, IJODI VA BEBAHO ADABIY MEROSI ..... 66

ISTIQBOLLI O’SIMLIK (ACORUS CALAMUS L.) NI INTENSIV USULDA KO’PAYTIRILIGANDA POYA VA ILDIZPOYALARNING BIOMETRIK

KO'RSATKICHLARI..... 70
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA USTOZNING ROLI: AN'ANAVIY PEDAGOGIKADAN INNOVATSION YONDASHUV SARI ..... 79
BUYUK IPAK YO'LI CHORRAHASIDA O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI VA XALQARO ELCHILIK MUNOSABATLARI ..... 84
"INFLUENCE OF THE IONIC COMPOSITION AND AGROCHEMICAL PROPERTIES OF SOIL SOLUTION ON PLANT NUTRIENT UPTAKE"..... 90
HIKOYALARNI O'QITISHDA ONTOLOGIK VA KONSEPTUAL TAHLIL METODLARINING AHAMIYATI..... 97
GANNIBAL HARBIY STRATEGIYA OTASI ..... 101
ENERGETIKA MUHANDISLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI..... 106
FORS ME`MORCHILIGINING O`RTA OSIYODAGI O`RNI..... 111
GLOBALLASHUV, MIGRATSIYA VA XALQARO MUNOSABATLAR..... 116
LANGUAGE AND GLOBALISATION: THE STATUS OF LANGUAGES IN THE INTERNATIONAL ARENA AND ISSUES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION ... 124
ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ ОБ ОТЦОВСТВЕ И НОРМАХ МАСКУЛИННОСТИ: ВЗАИМОСВЯЗЬ ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ ГЕНДЕРНЫХ ОЖИДАНИЙ..... 127
DORIXONATIZIMIDADORIVOSITALARISAVDOSINI PROGNOZLASHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH..... 138
THE IMPACT OF DYNAMIC PRICING

MANAGEMENT IN SERVICE ENTERPRISES ON FINANCIAL RESULTS ..... 141

BOLALARDA KARIYES KASALLIGINING OLDINI OLISH: ZAMONAVIY PROFILAKTIKA USULLARI ... 147

“KREATIV IQTISODIYOT RIVOJIDA MADANIYAT VA SAN’ATNING O‘RNI” ..... 152

DARYO SUVLARI TARKIBIDAGI RADIONUKLIDLARNING TA’SIRINI O’RGANISH157

CHET TILINI O‘RGANISHDA ICHKI VA TASHQI MOTIVATSIYA OMILLARI ..... 161

FORMATION OF FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATION SKILLS IN PRIMARY SCHOOL PUPILS THROUGH INTERACTIVE METHODS..... 166

МАЪРИФАТЛИ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ПСИХОЛОГИК ЁНДАШУВЛАРНИНГ ЎРНИ: МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ПСИХОЛОГИЯ ИНТЕГРАЦИЯСИ ..... 175

ANTIBIOTIKLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA ANTIBIOTIKLARGA CHIDAMLILIK MUAMMOSI.... 179

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI MUSIQA MASHG’ULOTLARIDA GAMIFIKATSION YONDASHUVNING SAMARADORLIGI ..... 184

GREEN FINANCE AND CLIMATE INVESTMENT: UNLOCKING UZBEKISTAN’S SUSTAINABLE DEVELOPMENT FUNDING..... 189

RAQAMLI DAVRDA INSON HUQUQLARI: TEXNOLOGIK RIVOJLANISH, MA’LUMOTLAR DAXLSIZLIGI VA KIBERXAVFSIZLIK O‘RTASIDAGI MUVOZANAT ..... 194

UYQU YETISHMOVCHILIGINING YURAK-QON TOMIR TIZIMIGA TA’SIRI: PATOFIZIOLOGIK MEXANIZMLAR VA PROFILAKTIK

YONDASHUVLAR..... 203
O‘ZBEKISTONDA TABIIY GEOGRAFIK JARAYONLARNI O‘RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NING AHAMIYATI ..... 208
ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA USTOZ VA MURABBIYNING KASBIY MADANIYATI HAMDA MA’RIFIY FAOLIYATI ..... 211
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIK FAOLIYAT JARAYONIDA HAMKORLIKDA ISHLASH ASOSIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH..... 214
TURKIY SIVILIZATSIYA: ETNOGENEZ, DAVLATCHILIK VA GLOBAL TA’SIR..... 220
RUS TILI TA’LIMIDA KOMPETENSIYAVIY ISHLAB CHIQARISH: INNOVATSIYALAR VA AMALIY DASTURLAR ..... 224
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA EKOLOGIK MA’RIFATNING IQTISODIY AHAMIYATI ..... 229
TARJIMA — MADANIYATLARARO MULOQOTNING MUHIM VOSITASI..... 234
ИСТОРИЯ ПРОНИКНОВЕНИЯ ИРФАНСКИХ МОТИВОВ В РУССКУЮ ЛИТЕРАТУРУ..... 237
ЛЕКСИКОЛОГИЯ РУССКИХ СЛОВ, ПРОИСХОДЯЩИХ ИЗ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ..... 243
ИНФЕКЦИОН ВА НОИНФЕКЦИОН КАСАЛЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 251
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI..... 255
SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH..... 255

“ILIMXAN” DA’STANÍNDA BASQA TILLERDEN ÓZLESTIRILGEN SÓZLER261

СОПОСТАВИМОСТЬ ТВОРЧЕСТВА И БИОГРАФИИ РОБЕРТА РОЖДЕСТВЕНСКОГО И МУХАММАДА ЮСУФА ..... 266

КОГНИТИВНО-ЭМОЦИОНАЛЬНАЯ САМОРЕГУЛЯЦИЯ И ЦЕННОСТНЫЕ ОРИЕНТАЦИИ СУБЪЕКТОВ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ВУЗА ..... 269

DANCES OF THE PEOPLES OF THE EAST BY GALIA IZMAILOVA ..... 275

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ ..... 280

BOSH MUHARRIR:
**YOQUTOY MIRZALIYEVA**

YORDAMCHI MUHARRIR:
**SHAHINA USMONOVA**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

**Akramov Abdumalik Abdumatalovich,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Nematov Sherzod Qalandarovich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor
**Saidov Mash'al Samadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Norim Razzokovich Raxmonov,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xudoyqulov To'lqin Do'stboboyevich,** tarix fanlari doktori, professor
**Jalolova Pokiza Muzaffarovna,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Qodirov Farrux Ergash o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Akram Soxibov Rustamovich,** pedagogika fanlari nomzodi professor
**G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Norboyev Allayor Ismoilovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
**Riskulova Kamola Djummayevna,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Jo'rayev Baxrom,** psixologiya fanlari doktori, professor
**Qurbonov Mirzaaxmad,** pedagogika fanlari doktori, professor
**Aripov Mirsaid,** fizika-matematika fanlari doktori, professor

© **«Ma'rifat fidoyisi», 2026**
© **«IZLANUVCHI», 2026**